

BOLALAR VOKAL ANSAMBLARINI TASHKIL ETISHDA PSIHOFEZIYANOMIYASIGA E'TIBOR QARATISH

Savapov Rashid Irkinovich,
Jizzax davlat pedagogika instituti
Musiqqa ta'limi va san'at
2 - kurs magistranti

Xasan Omonov,
Ilmiy raxbar, Musiqqa madaniyati
fakulteti dekani

Annotatsiya: Bolalarni musiqqa san'atiga oshno qilish ularning psixologiyasiga ijobiy ta'sir qilishi aniqlangan. Shuningdek turli xil shakllarga ega bo'lgan, masalan doiracha, uchburchak, to'rtburchak shakldagi turli xil asbob-uskunalar yoki yog'och qoshiqlar, likopchalar va turli xildagi yasama o'yinchoq cholg'ularni chalishni bolalarga yoshlik chog'idan o'rgatsa bo'ladi. Bundan tashqari, bolalarga musiqqa san'atini o'rgatishning dastlabki yillarida ularga turli xil ovozlarni, notalarni va farqlashni o'rgatish kerak. Umuman olganda, musiqiy tovushlar haqida tushuncha berish va ularni farqlashga o'rgatish, bolalarning yosh vaqtlaridan boshlash mumkin. Bolalarda musiqqa tinglashga ishtiyoqni qo'llab-quvvatlash ularni musiqaga bo'lgan mehrini orttirish kelajakda bolalardan yaxshi san'atkor chiqishga yordam berishi mumkin. Ushbu maqolada, bolalar vakolatlarini tashkil etishda psihofeziyanomiyasiga e'tibor qaratish haqidagi ma'lumotlar yig'ilib tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: bolalar, maktabgacha, texnologiya, vokal, ansambl, asbob, musiqqa, san'at, o'yinchoq, cholg'u, ovoz, diapazon, doira, nog'ora.

Ko'pincha bolalarni kuzatganimizda ularda alohida bir iqtidorni sezganda, ota-onalar albatta ularni turli xil musiqqa markazlari va turli xil san'at markazlariga olib borishlari zarur. Ya'ni bolalarga o'z iqtidorlarini namoyon qilishlari uchun yordam berishlari kerak deb hisoblayman. Bundan tashqari, bolalar musiqaning harakteri, musiqiy asboblardan chiqayotgan turli-xil tovushlarni farqlashni o'rganishlari uchun albatta bor muncha vaqt va mashg'ulotlarda shug'ullanishlari

kerak bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, bolalarni musiqa kuylashga o‘rgatishda, avvalombor, musiqaning she‘ri va ritmiga mos tarzda qo‘shiqni kuylashni o‘rgatishda, dastlab bolalarga qiyin musiqalar berish mumkin emas. Chunki ularni yoshini hisobga olish muhim sanaladi.¹ Bu jarayonda esa bolalardagi ovozning yosh xususiyatlarini alohida hisobga oladi. Bu jarayonda esa bolalarni to‘g‘ri nafas olishga o‘rgatish kuylash ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga e‘tibor qaratiladi. Birinchidan, bolalardan tuzilgan kichik ansambldagi bolalarning ovozlari o‘zaro bir-biriga tushishi, shuningdek kuy ohangiga mos tarzda ijro etishga ahamiyat berish zarur bo‘ladi. Bolalarni har xil cholg‘ularni chalishga o‘rgatishning ham turli xildagi texnikalari mavjud. Doira, nog‘ora kabi qator cholg‘ularni ijro etganda ulardan chiqayotgan ovozlarni farqlashga yordam beradi, tashqari ham cholg‘u asboblarini ham e‘tibor beriladi.

Bolalar vokal ansamblini tashkil etishda eng asosiy narsa bu bolalarning ovozi bir-biriga mosligi, bundan tashqari bolalarning yoshi alohida ahamiyatga ega. Bolalar ansamblini tashkil etilgandan so‘ng albatta ansamblning o‘z repertuari bo‘ladi. Bu jarayonda ham hammasi qo‘shiq tanlashda bolalarning yoshini inobatga olish kerak. Xususan, qo‘shiqlarni sahnalashtirish davomida qo‘shiqlarning so‘zi, musiqasi va harakatlari ham o‘zaro bir-biriga uyg‘un tarzda bo‘lishi kerak, ammo musiqiy mashg‘ulotlar davomida barcha bolalarni e‘tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Bunda ularning har biri o‘zlarini fikrlari va individual xususiyatlariga ega, shuningdek, ularga mustaqil shaxs sifatida qarab barchasining imkoniyatini teng tartibda inobatga olish kerak.

Katta yoshdagi insonlardan tashkil etilgan ansamblga nisbatan, albatta bolalar ansamblida ishlash birmuncha qiyinchilik tug‘diradi, boisi bolalardagi injiqlik, ularning xarakterini tushunish ko‘pincha kattalarga qiyinchilik tug‘diradi. Masalan, bolalar ansamblini turli yoshdagi bolalardan tuzish mumkin. Jumladan 6 yoshli bolalardan tuzilgan ansambl bo‘lsa olti yoshli bola bilishi lozim bo‘lgan bilimlar -

¹ G. M. Sharipova, D. F. Asomova, Z. L. Xodjayeva, “Musiqa o‘qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuarlari” // Toshkent – 2014 y 76-77-betlar.

bu musiqa asarining shaklini mustaqil aniqlay olish, tinglagan asarlarning nomi va ijodkorlarni bilish, musiqa asarining mazmunini tushunish va kayfiyatiga qarab farqlash, musiqaga moslasha olish shuningdek oraliqdagi notalarni bilan tovush qatorni kuylash va qator musiqalarni farqlash shunday ansamblning borishidir. Yaponiya operalari haqida tushunchalarga ega bo'lish, bundan tashqari qismlarini o'zgarishiga qarab harakat va ovozini o'zgartirish musiqiy asboblarning tovushlarni farqlay olish keltirishimiz mumkin.

Yana bir jihatni olib qaraydigan bo'lsak, qo'shiq kuylash jarayonida bolalarni ovozini shikastlanishdan asrash asrab qolish va rivojlanishida murabbiylar tomonidan ko'maklashish talab etiladi.² Chunki bolalarning to'g'ri nafas olishi va to'g'ri kuylash malakalarini shakllantirish ustozning zimmasida bo'ladi. Bolalarning yosh xususiyatlari va ovoz diapazonlarini hisobga olib repertuar tanlash, qo'shiq matni va ohangini aniq ifoda etish kerak. Shuningdek, bolalar cholg'u asbob anjomlari orqali kuylashga o'rgata olish, umuman jamoa bo'lib ishlashga o'rgatish bolalar ansamblini tuzishning eng murakkab jarayonlaridan biri sanaladi. Bolalarda qo'shiq ijrochiligi va aktyorlik kabi qobiliyatlarni rivojlantirish esa bolalarning yanada ansambl tarzida ishlay olishga yordam beradi.

Ma'lumki, bolalar ansambli tuzilgandan so'ng, albatta ular bir jamoa bo'lib ishlashlariga to'g'ri keladi. Bu jarayonda ular o'z malakalarini rivojlantirish bilan birgalikda jamoa bo'lib ishlashni ham o'rganishadi, ya'ni ijodni barobar boshlab, birgalikda yakunlash, mustaqil ijro etish ko'nikmalari bir biridan, albatta farq qiladi. Bolalar vokal ansamblini tuzishda bolalarning psihofeziyanomiyasiga alohida e'tibor qaratish zarur. Bolalardagi ijodkorlikni rivojlantirishda esa mutaxassislar turli xildagi musiqiy o'yinlardan foydalanish tashqari, vokal ansambli bo'lib yoki yakkaxon tarzda qo'shiq kuylay ish orqali amalga oshiriladi. Ko'pincha bolalar guruhida shug'ullantirish deb baholanadi.

² Muzafarova S. X "Vokal ansambli" o'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent 2015-y

Albatta bolalar ulg'aygan sari ularda qo'shiq kuylash va musiqani ajratib olish musiqaga moslashish kabi xislatlar ham birmuncha rivojlanib boradi. Bu albatta yoshga bog'liq jumladan 7 yoshli bola 6 yoshli bola o'rtasida ancha katta farq bor, jumladan bu yoshdagi bolalar jamoa bo'lib yoki yakkaxon tarzda ham qo'shiq kuylay olishadi. Bunda musiqalarni ham alohida e'tiborga olishadi. Eng muhimi esa yetti yoshli bolalarda yoki undan yuqori bo'lgan yoshdagi bolalardan tuzilgan ansamblda nisbatan erkin fikrlash, shuningdek ishlash mumkin. Ularning xususiyatlarini e'tiborga olishda esa misol tariqasida 7 yoshli bolalar o'zlari mustaqil ravishda musiqaning mazmun-mohiyatini anglaydi va bayon etib bera



oladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarni ham aynan musiqaga o'rgatish texnologiyasi o'ziga xos o'ringa ega. Chunki aynan mana shu yoshda bolalarda turli xil yangi narsalarga qiziqish paydo bo'ladi. Bu esa ularning o'rganishi uchun oson bo'ladi. Umuman olib qaraganda, musiqa bolalarning dunyoqarashini rivojlanishiga ham sabab bo'ladi. Xususan, bolalarga xalq mumtoz musiqalarni o'rgatish orqali ularda vatanga muhabbat, sadoqat kabi hislatlarni ham shakllantirish mumkin.

Bolalar vokal ansambli tuzilgandan so'ng, albatta ularni ustida ko'proq ishlash talab etiladi. Jumladan, bolalarni musiqiy asarning ifoda vositalari va shaklini tahlil qilishga o'rgatish musiqa asarning mazmuni haqida tushuncha

beriladi, Mashg‘ulotlar davomida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali bolalarni musiqaga yanada qiziqtirish mumkin.

Aslida esa qo‘shiq tinglash va kuylash bu bolalarning ham tarbiyaviy, ham ma‘naviy jihatdan rivojlantiradi. Shu bilan bir qatorda, musiqiy vosita yordamida ba‘zi ruhiy xastaliklarni ham davolash mumkin. Umuman olib qaraganda, musiqa yordamida bolalarning psixologik holati ham birmuncha yaxshilanishi kuzatiladi. Ayniqsa, bolalar vokal ansamblini tuzish jarayonida ham bolalarning psixologik holatiga alohida e‘tibor qaratiladi. Odatda, turli psixologik top Shuva temperamentga ega bo‘lgan bolalardan tuzilgan vokal ansambli muvaffaqiyatli bo‘lmasligi mumkin. Shu sababdan ham mutaxassislarining tavsiyasi har doim bolalar vokal ansamblini tuzayotganda ularning psihofeziyanomiyasiga e‘tibor qaratish muhim faktor sifatida qat‘iy tarzda belgilanadi. Jumladan, besh yoshdagi bolalar psixologiyasi bilan sakkiz yoshdagi bolalarning dunyoqarashi orasida aslida anchagina katta farq bor ekani psixologik tahlillarga ko‘ra aniqlangan.

Mutaxassislar tajribasi shuni ko‘rsatadiki,³ aynan bolalar vokal ansamblidagi ishtirok etgan barcha bolalarda yaxshi do‘stlik aloqalarini o‘rnata olish ya‘ni oson do‘stlashish, muloqot qilish, musiqa asboblarini chala olish, atrofida qilargalarga moslasha olish, jo‘rovoz bo‘la olish kabi xislatlar rivojlanadi. Bu esa bolalarning kelajagiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, ya‘ni ular ulg‘aygan vaqtda ham ijodkorlik qobiliyati saqlanib qoladi va ularning kelajakda yaxshigina ijodkor bo‘lib yetishadi.

Masalan yevropalik olimlarning aniqlashicha, qo‘shiq kuylash jarayonida bolalar musiqani chuqurroq idrok etadilar va o‘zgacha his-tuyg‘ularni ham faol ifodalashni boshlaydilar. Bu jarayonda ularning psixologik holatida ham o‘shish kuzatiladi. Xususan, bolalar qo‘shiq matni esa bolalarga musiqa mazmunini tushunishga osonroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

³ M. Ismoilova, “Xalq qo‘shiqlari vositasida o‘quvchilarning ma‘naviy – axloqiy fazilatlarini shakllantirish”// 2012-y 156-bet.

Ko'pincha mutaxassislarining tavsiya qiladi, ya'ni bolalar vokal ansambliga tanlanayotgan musiqaning she'ri nisbatan osonroq va uning so'zlari tez esda qoladigan bo'lishi talab etiladi.⁴ Umuman vokal ansamblida qo'shiq kuylash jarayonida bolalar bevosita musiqiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Musiqa eshitish davomida ulardan musiqiy xotira bilimi ham talab qilinadi. Shuningdek, jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqiy qobiliyati hamda ijrochilik malakasini rivojlantirishda yordam beradi. Guruhda bir jamoa bo'lib kuylash jarayonida bolalar o'z ovoz ijrosini boshqarishni ustozlari ijrosini eshitib kuzatib xatolarni to'g'rilashga undan tashqari, jamoaviy birliklar tarbiyalanadi. Bolalarda musiqiy savodxonlik balki musiqiy dunyoqarash, musiqiy tafakkur va shu kabi sifatlarni shakllantirishga ham xizmat qilishi amalda isbotini topgan.

Shuningdek, qo'shiq kuylash bolalarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi va ularda musiqaga bo'lgan mehrning ortishiga ham sabab bo'ladi. Bolalar musiqa kuylash jarayonida ruhan ya'ni psixologik hamda jismonan ham sog'lom bo'lishlarida yordam beradi. Boisi esa bolalar qo'shiq kuylayotganda nafas yo'llari umuman olganda, barcha nafas a'zolari faoliyat olib boradi.⁵ Bunda esa bolalarda ko'nikmalarni tarbiyalash orqali ularda yangi bolalarga moslasha olish, eng muhimi esa bolalar ansamblida qo'shiq kuylash davomida bolalarda jamoa bo'lib ishlash, hamda boshqalarga moslashish kabi sifatlar shakllanib boradi. Umuman olganda, qo'shiq matni va musiqiy ohanglarni his qilish va tinglovchiga musiqani yetkazib bera olishadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bolalar vokal ansamblini tashkil etishda ularning yoshiga alohida ahamiyat qaratish kerak. Bu jarayon albatta bolalarning psixologiyasiga bog'liq hamda bolalarda qo'shiq kuylash jarayonida ularning ovoz diapazoni har xil bo'ladi va kimdadir balandroq, kimdir esa nisbatan pastroq bo'lishi mumkin. Bu jarayonda ustoz o'quvchilarning ovoz imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishi zarur. Eng muhimi esa bolalarga musiqa yordamida ta'lim berish

ham onsonroq ekanligi aniqlangan. Ya'ni bolalar musiqa orqali odatdagiga nisbatan 12 foiz ko'proq bilimlarni o'zlashtirishar ekan. Bunda bolalar vokal ansamblini tuzatitgan va ishlayotganda nihoyatda e'tiborli bo'lish, hamda bolalarning psihofeziyanomiyasiga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Bu esa har bir bolaga e'tiborli bo'lishi kerakligini ma'lum qiladi. Chunki bolalar tabiatan tez arazlaydigan bo'lishadi, shu boisdan ham ustozdan psixologik bilimlar ham talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G.M.Sharipova, D.F.Asomova, Z.L.Xodjaeva, "Musiqa o'qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuarlari" // Toshkent – 2014 y 76-77-betlar.
2. Muzafarova S.X "Vokal ansambli" o'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent 2015-y
3. M. Ismoilova, "Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarning ma'naviy – axloqiy fazilatlarini shakllantirish"// 2012-y 156-bet.
4. Sodiqov O. Vokal ansambli. O'quv qo'llanma -Musiqa, T. 2005 y.
5. P. Qodirov. "Boshlang'ich maktabda ko'p ovozda kuylash". – T: O'qituvchi nashriyoti, 1997-y. 211-215-betlar
6. S. R. Irkinovich "Bolalar vokal ansambllarini tashkil etish"
<https://pshedu.jspi.uz/index.php/journal/article/view/2337/1532>
7. Sodiqov O. Vokal ansambli. O'quv qo'llanma -Musiqa, T. 2005 y.
P. Qodirov. "Boshlang'ich maktabda ko'p ovozda kuylash". – T: O'qituvchi nashriyoti, 1997-y. 211-215-betlar